“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligida mehnatga ma’muriy tarzda majburlaganlik uchun belgilangan jinoiy javobgarlik normalarining o‘ziga xos xususiyatlari

Xadichaxon Abdurasulova,
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi o‘qituvchisi
e-mail: xadichaabdurasulova06@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada inson huquqlarining fundamental qadriyatlaridan biri bo‘lgan mehnat erkinligini ta’minlash va majburiy mehnatning barcha shakllariga barham berishning jinoiy-huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Muallif O‘zbekiston jinoyat qonunchiligidagi mehnatga ma’muriy tarzda majburlaganlik uchun javobgarlik belgilovchi normalarni xalqaro konvensiyalar va rivojlangan xorijiy davlatlar (Fransiya, Germaniya, Ispaniya, AQSh hamda Rossiya Federatsiyasi) tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilgan. Tadqiqotda milliy qonunchilikdagi ma’muriy preyuditsiya instituti hamda sanksiyalar tizimining samaradorligi kabi masalalar o‘rganilgan. Tahlillar asosida Jinoyat kodeksining 1482-moddasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. mehnat erkinligi, majburiy mehnat, ma’muriy tarzda majburlash, jinoiy javobgarlik, qiyosiy-huquqiy tahlil, iqtisodiy qaramlik, sanksiya.

Аннотация. В данной статье исследуются уголовно-правовые механизмы обеспечениясвободы труда, являющейся одной из фундаментальных ценностей прав человека, и искоренения всех форм принудительного труда. Автор провел сравнительно-правовой анализ норм уголовного законодательства Республики Узбекистан, устанавливающих ответственность за административное принуждение к труду, с международными конвенциями и опытом развитых зарубежных стран (Франции, Германии, Испании, США и Российской Федерации). В исследовании изучены такие вопросы, как институт административной преюдиции в национальном законодательстве и эффективность системы санкций. На основе проведенного анализа выдвинуты научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию статьи1482Уголовного кодекса.

Ключевые слова. свобода труда, принудительный труд, административное принуждение, уголовная ответственность,

сравнительно-правовой анализ, экономическая зависимость, санкция.

Annotation. This article explores the criminal law mechanisms for ensuring freedom of labor, which is one of the fundamental values of human rights, and eradicating all forms of forced labor. The author conducts a comparative legal analysis of the provisions in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan establishing liability for administrative coercion to labor, aligning them with international conventions and the experience of developed foreign countries (France, Germany, Spain, the USA, and the Russian Federation). The study examines key issues such as the institution of administrative prejudication in national legislation and the effectiveness of the sanctions system. Based on the analysis, research-based and practical proposals and recommendations are advanced to improve Article1482of the Criminal Code.

Keywords. freedom of labor, forced labor, administrative coercion, criminal liability, comparative legal analysis, economic dependence, sanction.

Mehnatga ma’muriy tarzda majburlash butun dunyo miqyosida jiddiy inson huquqlarini buzish hisoblanib, u xalqaro hamjamiyatning eng katta muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Walk Free va Xalqaro migratsiya tashkilotining (XMT-IOM) 2022-yildagi qo‘shma hisobotida keltirilishicha, 2021-yilda dunyo bo‘yicha 27,6 million kishi majburiy mehnatga jalb qilingan. Bu ko‘rsatkich 2016-yilga nisbatan 2,7 million kishiga ko‘payganini ko‘rsatadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 5-moddasida mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg‘ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqi mavjudligi mustahkamlangan.

Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarga muvofiq mehnat erkinligi mehnat shartnomasi erkinligida namoyon bo‘lib, bu quyidagilarni anglatadi:

xodimlar va ish beruvchilarning mehnat shartnomasini tuzishdagi erkinligini. Xodimni va ish beruvchini mehnat shartnomasini tuzishga majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ish beruvchi xodim bilan mehnat shartnomasini ushbu Kodeksda, qonunda yoki ixtiyoriy ravishda olingan majburiyatda ish beruvchining shartnoma tuzish majburiyati nazarda tutilgan hollarda tuzishi shart;

mehnat shartnomasining shartnomaviy (asosiy va qo‘shimcha) shartlarini ushbu shartnoma taraflarining kelishuviga ko‘ra belgilashni;

mehnat shartnomasini xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra o‘zgartirish imkoniyatini;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

har qanday mehnat shartnomasini ushbu shartnoma taraflarining kelishuviga koʻra istalgan vaqtda bekor qilish imkoniyatini;

xodimning ushbu Kodeksda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini oʻz tashabbusi bilan bekor qilish huquqini;

ish beruvchining xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ushbu Kodeksda mehnat shartnomasini bekor qilish uchun nazarda tutilgan asoslar mavjud boʻlganda va belgilangan tartibga rioya etilgan holda oʻz tashabbusi bilan bekor qilish huquqini;

ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda belgilangan hollarda, mehnat shartnomasida uni bekor qilishning qoʻshimcha asoslarini nazarda tutish imkoniyatini.

Majburiy mehnat taqiqlanadi.

Mazkur moddaga koʻra, majburiy mehnat bu – biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qoʻllash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda oʻz xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida: “Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi”, – deb belgilab qoʻyilgan.

Majburiy mehnatga qarshi kurashishni tartibga soladigan asosiy xalqaro hujjat – XMTning 1930-yildagi 29-sonli Konvensiyasidir. Oʻzbekiston Respublikasi ushbu konvensiyani 1997-yilda ratifikatsiya qilgan. Shuningdek, 2019-yilda 1930-yildagi Konvensiyaga XMTning 2014-yildagi Bayonnomasi ham ratifikatsiya qilingan. Bu hujjat majburiy mehnat qurbonlarini himoya qilish, ularga tovon toʻlashni ta’minlash va oldini olish choralarini kuchaytirgan.

Konvensiyaning 2-moddasiga koʻra, majburiy mehnat – ixtiyoriy ravishda oʻz xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi. Ushbu ta’rif barcha milliy qonunchiliklarda majburiy mehnatni belgilashning asosi hisoblanadi [2].

1997-yilda ratifikatsiya qilingan Konvensiyaga binoan, “zoʻraki yoki majburiy mehnat” atamasi ixtiyoriy ravishda oʻz xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi.

Lekin “zoʻraki yoki majburiy mehnat” atamasi ushbu Konvensiya maqsadlari uchun quyidagilarni oʻz ichiga olmaydi:

a) majburiy harbiy xizmat toʻgʻrisidagi qonunlar kuchiga koʻra talab qilinadigan va haqiqiy harbiy tusdagi ishlarga qoʻllaniladigan har qanday ishni yoki xizmatni;

b) toʻla oʻzini-oʻzi boshqaradigan mamlakat fuqarolarining odatdagi fuqarolik burchlarining bir qismini tashkil qiladigan har qanday ish yoki xizmatni;

s) har qanday shaxsdan sud organining hukmi oqibatida talab qilinadigan har qanday ish va xizmatni, agar mazkur ish va xizmat davlat hokimiyat organlarining kuzatuvi va nazorati ostida bajarilsa

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hamda mazkur shaxs xususiy shaxslar, kompaniyalar yoki birlashmalar tasarrufiga o‘tkazilmasa yoki berilmasa;

d) favqulodda holatlar sharoitida, ya'ni urush yoki falokat, yoki falokat tahdidi holatlarida, masalan, yon‘gin, suv toshqini, ochlik, zilzila, kuchli epidemiya yoki epizotik kasallik, zararli hayvonlar, hasharotlar yoki parazitlarning hujumi hollarida va umuman jami aholi yoki aholi bir qismining hayoti yoki barqaror hayotiy sharoitini xavf ostiga qo‘yadigan yoki qo‘yishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar sharoitida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni;

e) jamoaning mayda xizmatlarini, ya'ni jamoaning bevosita foydasi uchun shu jamoa a'zolari tomonidan bajariladigan va shu tufayli jamoa a'zolarining odatdagi fuqarolik burchlari deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan ishlarni, faqat ushbu jamoa a'zolari yoki uning bevosita vakillari shu ishlarning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha maslahatlashish huquqiga ega bo‘lishi sharti bilan.

Konvensiyaning 25-moddasiga ko‘ra, zo‘raki yoki majburiy mehnatga noqonuniy jalb qilish jinoiy tartibda ta'qib qilinadi hamda ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Tashkilotning har bir a'zosi qonunda ko‘rsatilgan sanksiyalarning chinakam samaradorligini va ularga qat'iy rioya qilinishini ta'minlashi shart. Mazkur konvensiya 2026-yil holatiga ko‘ra 180 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1482-moddasida mehnatga ma'muriy tarzda majburlaganlik uchun javobgarlik belgilangan. Unga ko‘ra, mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Xuddi shunday harakat voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etiladigan bo‘lsa, og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi va bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, ta'lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda majburiy mehnatning barcha shakllariga, ayniqsa, ma’muriy resurslardan foydalangan holda shaxslarni o‘z xizmat vazifalariga kirmaydigan ishlarga majburlash holatlariga barham berish davlat siyosatining

ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Milliy qonunchilik tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, xususan, jinoiy javobgarlik choralarini kuchaytirish orqali ushbu sohada sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Shunga qaramay, huquqni qo‘llash amaliyotida mehnatga ma’muriy tarzda majburlash qilmishining kvalifikatsiyasi va jinoiy-huquqiy normalarning samaradorligini yanada oshirish zarurati mavjud.

Mazkur muammoni fundamental hal etish va milliy huquq tizimini takomillashtirish rivojlangan xorijiy davlatlarning (Fransiya, Germaniya, Ispaniya, AQSh va Rossiya Federatsiyasi) bu boradagi qonunchilik tajribasini chuqur qiyosiy-huquqiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi majburiy mehnat uchun belgilangan normalarning qiyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshiradigan bo‘lsak, Fransiya Jinoyat kodeksi “Inson qadr-qimmatiga tajovuzlar” V Bobi “Inson qadr-qimmatiga zid bo‘lgan mehnat va yashash sharoitlari, majburiy mehnat va qullikka solish” (225-13 – 225-16-moddalar) deb nomlanuvchi 3-bo‘limi mehnat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar 225-13-moddasiga ko‘ra , shaxsning ojizligi yoki unga nisbatan qaramlik holatidan foydalanib, uni haq to‘lamasdan yoki bajarilgan ish hajmi va murakkabligiga mutlaqo nomutanosib miqdorda haq to‘lash evaziga xizmat ko‘rsatishga majbur qilish besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 150 ming yevro miqdorda jarima bilan jazolanadi [3].

Mazkur qilmishni sodir etgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan qo‘shimcha jazo sifatida – mehnat kodeksida nazarda tutilgan tartibda besh yil muddatga kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etish ham qo‘llanadi.

Fransiyada mehnat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar Jinoyat kodeksining “Inson qadr-qimmatiga tajovuzlar” deb nomlangan V bobi, 3-bo‘limida (“Inson qadr-qimmatiga zid bo‘lgan mehnat va yashash sharoitlari, majburiy mehnat va qullikka solish”, 225-13 – 225-16-moddalar) tartibga solingan.

225-13-modda: Shaxsning ojizligi yoki unga nisbatan qaramlik holatidan foydalangan holda, uni haq to‘lamasdan yoki bajarilgan ishning hajmi va murakkabligiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan (nomutanosib) juda kam haq evaziga xizmat ko‘rsatishga majburlash 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 150 ming yevro miqdorida jarima bilan jazolanadi.

Ushbu qilmishni sodir etgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga qo‘shimcha jazo sifatida 5 yil muddatga kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish chorasi ham qo‘llanilishi mumkin.

225-14-modda: Shaxsning ojizligi yoki qaramligidan foydalanib, uni inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi mehnat yoki yashash sharoitlariga majburlab jalb etish 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 200 ming yevro jarimaga sabab bo‘ladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

225-14-1-modda: Majburiy mehnatning huquqiy ta’rifi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra shaxsni zo‘rlik ishlatish yoki tahdid ostida, hech qanday haq to‘lamasdan yoki bajarilgan ish hajmi va murakkabligiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan haq evaziga mehnat qilishga majburlash tushuniladi.

225-14-2-modda: Qullikka tushirish tushunchasi yoritilgan. Bu shaxsning ojizligi yoki qaramligidan foydalanib, unga muntazam ravishda inson sha’niga zid bo‘lgan, noqonuniy majburiyatlarni yuklash yoki majburiy mehnatga jalb etish bo‘lib, ijtimoiy xavfli qilmish sanaladi.

225-15-modda (Og‘irlashtiruvchi holatlar): Yuqoridagi jinoyatlar quyidagi holatlarda sodir etilsa, jazo choralari og‘irlashadi:

Bir nechta shaxslarga nisbatan sodir etilganda;

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilganda;

Bir nechta shaxslarga nisbatan sodir etilganda.

Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni (Konstitutsiyasi) 12-moddasi 2-qismida hech kim maxsus qonun asosidan tashqari va umumiy fuqarolik majburiyatidan tashqari holatlarda majburiy ishlashga jazo tahdidi ostida majburlanishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Germaniya Jinoyat kodeksida (StGB) majburiy mehnat uchun javobgarlik quyidagi moddalarda aks etgan:

§ 232 StGB – Odam savdosi (Menschenhandel): Kishini ekspluatatsiya qilish niyatida jalb qilish, tashish yoki qabul qilish harakatlari. Oddiy jazo 6 oydan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bo‘lsa, og‘irlashtiruvchi holatlarda (bolalarga nisbatan yoki uyushgan guruh tomonidan bo‘lsa) 10 yilgacha etib belgilanadi.

§ 232b StGB – Majburiy mehnat (Zwangsarbeit): Bu modda qonunchilikka 2016-yildagi islohotlar natijasida alohida jinoyat tarkibi sifatida kiritilgan. 1-qismga ko‘ra: Agar shaxs boshqa bir kishining shaxsiy yoki moliyaviy og‘ir ahvolidan, yoki uning xorijda ojiz holatda ekanligidan foydalanib, uni (yoki 21 yoshga to‘lmagan boshqa shaxsni) ekspluatatsion mehnatga jalb qilsa, qullik, qarz qaramligi sharoitiga tushishga yoki tilanchilik qilishga majburlasa – 6 oydan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

2-qismga ko‘ra: ushbu jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish ham javobgarlikka sabab bo‘ladi. 3-qismga ko‘ra: agar ushbu harakatlar kuch ishlatish, og‘ir zarar yetkazish bilan qo‘rqitish yoki aldash orqali sodir etilib, shaxs ekspluatatsiya qilinsa, jazo 1 yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish etib belgilanadi.

§ 233 StGB – Mehnat kuchini ekspluatatsiya qilish (Ausbeutung der Arbeitskraft): Shaxsning majburiy ahvolidan foydalangan holda uni ekspluatatsion mehnat sharoitida ushlab turish 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi [4].

Ispaniya Jinoyat kodeksining “Xodimlarning huquqlariga qarshi jinoyatlar to‘g‘risida”gi XV bobi bevosita mehnat huquqlarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi. 311-modda: Quyidagi xatti-harakatlar 6 oydan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 6 oydan 12 oygacha jarima bilan jazolanadi:

Aldash yoki muhtojlikni suiiste’mol qilib, xodimga uning qonuniy, jamoaviy yoki yakka tartibdagi shartnomaviy huquqlariga zarar yetkazadigan mehnat yoki ijtimoiy ta’minot sharoitlarini yuklash. Bir vaqtning o‘zida bir nechta ishchini ijtimoiy ta’minotda ro‘yxatdan o‘tkazmasdan yoki ruxsatnomasiz ishga yollash (agar ishchilar soni: 100 dan ortiq xodimi bor korxonada 25% ni; 10 dan 100 gacha bo‘lgan korxonada 50% ni; 5 dan 10 gacha bo‘lgan korxonada esa barcha ishchilarni tashkil qilsa). (Agar ushbu qilmishlar zo‘rlik yoki qo‘rqitish bilan sodir etilsa, yanada og‘irroq jazo tayinlanadi) [5].

AQSh qonunchiligida majburiy mehnatga oid qoidalar va ta’riflar juda batafsil bayon etilgan. Qasddan shaxsni uning ixtiyoriga qarshi ravishda quyidagi yo‘llar bilan ishlatish jinoyat hisoblanadi:

Kuch ishlatish, jismoniy cheklash yoki shunday tahdidlar qilish;

Jiddiy ziyon yetkazish yoki shunday tahdid qilish;

Qonun yoki huquqiy jarayonni suiiste’mol qilish;

Shaxsda “agar ishlamasam jiddiy zarar ko‘raman” degan ishonchni uyg‘otuvchi maxsus sxema yoki rejalardan foydalanish.

Ushbu qoidalarni buzgan shaxslar jarimaga va 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilinadi. Agar ushbu jinoyat oqibatida kishi o‘limi yuz bersa, yoki u odam o‘g‘irlash, jinsiy zo‘ravonlik yoxud qotillikka suiqasd bilan bog‘liq bo‘lsa, jazo umrbod ozodlikdan mahrum qilishgacha og‘irlashishi mumkin.

Qonun nafaqat ishchini bevosita majburlagan shaxsni, balki ushbu majburiy mehnatdan moliyaviy foyda ko‘rgan uchinchi shaxslarni ham javobgarlikka tortadi. Masalan, ishchilar majburlab ishlatilayotganini bila turib (yoki buni ko‘rsatuvchi belgilarga ko‘z yumib), ularni o‘z qurilishida ishlatgan tadbirkor ham jazolanadi.

Huquqiy jarayonni suiiste’mol qilish – qonun mo‘ljallamagan maqsadda ma’muriy, fuqarolik yoki jinoiy choralarni bosim o‘tkazish uchun qo‘llashdir. Jiddiy ziyon nafaqat jismoniy, balki psixologik, moliyaviy yoki obro‘ga putur yetkazuvchi har qanday ziyon bo‘lib, u oqilona fikrlovchi shaxsni shu ziyondan qutulish uchun ishlashga majbur qiladigan darajada jiddiy bo‘lishi kerak [6].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 127.2-moddasiga ko‘ra, shaxsga nisbatan mulk huquqiga xos bo‘lgan vakolatlarni amalga oshirgan holda uning mehnatidan foydalanish, agar shaxs o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra ishlarni (xizmatlarni) bajarishdan bosh torta olmasa, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi [7].

O‘zbekiston jinoyat qonunchiligidan farqli ravishda Rossiya jinoyat qonunchiligi bo‘yicha shaxsni mazkur modda bilan javobgarlikka tortish uchun shaxs oldin ma’muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lishi shart emas. Shuningdek, moddalar mazmunan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning dispozitsiyasi va nomlanishi umuman farq qilishini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, JK 1482-moddasiga asosan mehnatga biron-bir shaklda ma’muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, xuddi shunday qilmish uchun ma’muriy jazo

qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda mehnatga majburlash jinoyati uchun jazo choralari juda qat’iy belgilangan. Jinoyat kodekslarida nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki iqtisodiy qaramlik, psixologik bosim va huquqiy jarayonlarni suiiste’mol qilish ham majburlash vositalari sifatida tan olingan. Ushbu tizimli yondashuvlarni o‘rganish inson huquqlarini himoya qilish xalqaro standartlarini milliy qonunchilikka samarali tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, milliy qonunchiligimizni xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi konseptual takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, Jinoyat kodeksining 1482-moddasi dispozitsiyasini kengaytirib, majburlash usullari qatoriga nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’muriy bosimni, balki shaxsning iqtisodiy nochorligi, ijtimoiy zaifligi (ojizligi) va huquqiy maqomining muvozanatsizligidan (masalan, migrantlik holatidan) qasddan foydalanish elementlarini ham kiritish lozim.

Ikkinchidan, amaldagi moddaning sanksiyalar tizimini qayta ko‘rib chiqish zarur. Ayniqsa, voyaga yetmagan shaxslar hamda ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini mehnatga ma’muriy tarzda majburlaganlik uchun (JK 1482-moddasi 2 va 3-qismlari) jazo chorasi sifatida ozodlikni cheklash yoki muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini kiritish mansabdor shaxslarning ma’muriy resurslarni suiiste’mol qilishini oldini oluvchi eng samarali preventiv vosita bo‘ladi.

Uchinchidan, agar mehnatga ma’muriy yoki boshqa usullarda majburlash harakatlari inson hayoti va sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi og‘ir sharoitlarda sodir etilsa, ma’muriy preyuditsiya mexanizmini chetlab o‘tib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi maxsus qism (norma) joriy etilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.ilo.org/publications/major-publications/global-estimates-modern-slavery-forced-labour-and-forced-marriage

2. ILO. Forced Labour Convention, 1930 (No. 29). Geneva: ILO. – https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C029

3. Code pénal [Fransiya jinoyat kodeksi]. – URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070719 (murojaat sanasi: 08.09.2025).

4. Strafgesetzbuch (StGB) [Germaniya jinoyat kodeksi]. – URL: https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/ (murojaat sanasi: 08.09.2025).

5. Ispaniyaning 1995-yil 23-noyabrdagi Jinoyat kodeksi. № 10/1995 // https://www.mjusticia.gob.es/es/AreaTematica/DocumentacionPublicaciones/Documents/Criminal_Code_2016.pdf

6. “Adolatli mehnat standartlari to‘g‘risidagi Qonun” (Fair Labor Standards Act, FLSA, 1938), Section 6. – 29 U.S.C. § 206. – URL:

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

https://www.law.cornell.edu/uscode/text/29/206 (murojaat sanasi: 08.09.2025).

7. Rossiya Federatsiyasining 1996-yil 13-iyundagi Jinoyat kodeksi. № 63-ФЗ (21.04.2025-yilgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalari bilan) // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/